



UY QAMOG‘I TARZIDAGI EHTIYOT CHORASINING IJROSINI NAZORAT QILISH TARTIBI.

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi
Kamilxanov Jamshidxon Kamilxanovich

Uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasining ijrosini nazorat qilish tartibi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining “Uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasining ijrosini nazorat qilish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama etilgan.

Kalit so‘zlar: Uy qamog‘i, jinoyat-protsessual kodeksi, ziddiyatlar, tizimli kamchiliklar, ehtiyot chorasi, cheklovlarni qo‘llash, qonun, shaxs, sud.

ПОРЯДОК КОНТРОЛЯ ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ МЕРЫ ПРЕСЕЧЕНИЯ В ВИДЕ ДОМАШНЕГО АРЕСТА.

Аннотация. В данной статье обсуждается проект закона Республики Узбекистан “О внесении изменений и дополнений в Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан в связи с совершенствованием порядка контроля за исполнением меры пресечения в виде домашнего ареста.”

Ключевые слова: Домашний арест, уголовно-процессуальный кодекс, противоречия, системные недостатки, мера пресечения, применение ограничений, закон, лицо, суд.



PROCEDURE FOR MONITORING THE EXECUTION OF A PREVENTIVE MEASURE IN THE FORM OF HOUSE ARREST.

Abstract. This article discusses the draft law of the Republic of Uzbekistan “On Amendments and Additions to the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan in connection with the improvement of the procedure for monitoring the execution of a preventive measure in the form of house arrest.”

Keywords: House arrest, criminal Procedure Code, conflicts, systemic shortcomings, preventive measure, application of restrictions, law, person, court.

Bugungi kunda inson qadr – qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilib, mamlakatimizda insoniyat asrlar davomida orzu qilib kelgan demokratik huquq va erkinliklar bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning Shahrisabzdagi Oqsaroy peshtoqiga yozdirib ketgan “Adolat – davlatning asosi va hukumdor shioridir”, degan hikmatli so‘zlari hammamizga ma’lum. Ularda aks etgan ulug‘vor g‘oyalar bugungi kunda inson qadr – qimmatini oliy darajaga ko‘tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylanmoqda [1].

Mamlakatimiz jinoyat-protsessual qonunchiligiga insonparvarlik va demokratizm tamoyillari keng joriy etilishi natijasida 2014-yilda qamoq ehtiyot chorasiga muqobil bo‘lgan uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi joriy etilgan [2].

Sudlar tomonidan o‘tgan davrda 3 mingga yaqin shaxsga uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasining ijrosini nazorat qilish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni loyihasi ishlab chiqilgan.



Bunga ko‘ra, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijrosini ta‘minlash va nazorat qilishda quyidagi huquqiy bo‘shliqlar, ziddiyatlar va tizimli kamchiliklar mavjudligi aniqlangan:

– qonunda uy qamog‘iga berilgan ta‘rifda ushbu ehtiyot chorasini ijro etish joyi to‘liq qamrab olinmagan, shuningdek, ehtiyot chorasini ijro etish joyiga qo‘yiladigan talablar belgilanmagan;

Faqat shaxsning turar joyi nazarda tutilib, sog‘lig‘ining holatini hisobga olgan holda joylashtirilgan tibbiy muassasaning hududi e‘tibordan chetda qoldirilgan.

– uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashda hisobga olinadigan holatlar to‘liq belgilanmasdan, turlicha talqin qilinadigan hamda suiiste‘molliklarga sabab bo‘ladigan “va boshqa holatlar” degan so‘zlar qo‘llanilgan;

Qonunda uy qamog‘ini qo‘llashda shaxsning yoshi, sog‘lig‘i holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlar hisobga olinishi nazarda tutilgan

– uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi sudning ajrimida ko‘rsatiladigan holatlar to‘liq nazarda tutilmagan;

Shaxsning jamiyatdan to‘liq yoki qisman ajratib qo‘yilganligi, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyini qo‘riqlash belgilangan hollarda ushbu vazifani amalga oshiradigan organi ko‘rsatish e‘tibordan chetda qolgan

– qonunda sudning uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrimi nusxasi ijro qilish uchun ichki ishlar organiga yuborilishi belgilanmaganligi aksariyat hollarda sud ajrimlarining ijroga qaratilmasligiga yoki kech ijroga qaratilishiga sabab bo‘lmoqda;



– qonunda uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etuvchi subektni ifodalash uchun *“belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organ”*, *“ichki ishlar organi”* tushunchalarining qo‘llanilganligi huquqiy ziddiyatga sabab bo‘lmoqda.

– uy qamog‘idagi shaxsga nisbatan cheklovlarni qo‘llash asosi belgilanmaganligi, shuningdek o‘rnatiladigan cheklovlar miqdori aniqlashtirilmaganligi ushbu jarayonda inson omili bilan bog‘liq korrupsion holatlarni yuzaga keltirmoqda;

Qonunda uy qamog‘idagi shaxsga nisbatan 4 ta cheklov (muayyan shaxslar bilan aloqada bo‘lish, xat-xabar olish va jo‘natish, har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so‘zlashuvlar olib borish, uy-joyni tark etish) qo‘llanilishi mumkinligi nazarda tutilgan

– uy qamog‘ining jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yish va jamiyatdan qisman ajratib qo‘yish shakllarining mazmuni va qo‘llash asoslari belgilanmagan, ya‘ni qaysi holatlarda shaxs jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yilishi yoki aksincha, qisman ajratib qo‘yilishi, ularni ijrosini nazorat qilish mexanizmlari tartibga solinmagan. Bu esa, qonun normalari mazmunining turlicha talqin etilishiga va korrupsion holatlarga zamin yaratmoqda;

– o‘rnatilgan cheklovlarni buzganda uy qamog‘ining ikki turini (*jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yish va jamiyatdan qisman ajratib qo‘yish*) o‘tayotgan shaxs uchun ham bir xil ta’sir chorasini (*qamoqqa olish ehtiyot chorasi*) qo‘llanilishi belgilanganligi ijtimoiy adolat tamoyiliga muvofiq kelmaydi;

– qonunda “zarur hollarda, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasi qo‘llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo‘llanilishi mumkin” degan tavsiyaviy norma belgilanganligi, elektron kuzatish vositalarini qo‘llash asoslari va



tartibi belgilanmaganligi ushbu normaning amaliyotga tatbiq etilmay kelayotganligiga omil bo'lmoqda;

– qonunda “qamoqqa olinganning yashash joyi qo'riqlanishi mumkin” degan tavsiyaviy norma belgilanganligi, yashash joyini qo'riqlash tartibi va moliyalashtirish manbasi belgilanmaganligi ushbu normaning amaliyotga tatbiq etilmay kelinayotganligiga omil bo'lmoqda, shuningdek, ushbu o'rinda uy qamog'idagi shaxsga nisbatan “qamoqqa olingan” tushunchasi nomaqbul ravishda qo'llanilgan;

– qonunda “zarur hollarda uy qamog'idagi shaxsning xulq-atvori ustidan nazorat o'rnatiladi” degan tavsiyaviy norma belgilanganligi, shaxs xulq-atvori ustidan nazoratni o'rnatish asoslari va mexanizmlari belgilanmaganligi ushbu normaning amaliyotga tatbiq etilmay kelinayotganligiga omil bo'lmoqda.

Loyihada yuqorida qayd etilgan huquqiy bo'shliqlar, ziddiyatlar va tizimli kamchiliklar to'liq bartaraf etilgan. Xususan:

1) ehtiyot chorasini ijro etish joyi (*uy-joy yoki tibbiy muassasaning hududi*) to'liq qamrab olingan, shuningdek ehtiyot chorasini ijro etish joyiga qo'yiladigan talablar (*uy-joyning sanitariya, yong'inga qarshi, texnik talablarga javob berishi va shaxs qonuniy asosda yashayotgan bo'lishi, tibbiy muassasaning uy qamog'idagi shaxslarni saqlash uchun moslashtirilgan bo'lishi*) belgilangan holda “uy qamog'i”, “uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyi” tushunchalariga ta'rif berilgan;

2) uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llashda hisobga olinadigan holatlar to'liq belgilangan;

Bunda “boshqa holatlar” degan noaniq holat “shaxsi”, “mashg'ulot turi”, “jamiyatdan to'liq yoki qisman ajratib qo'yish zarurati” degan aniq holatlar bilan almashtirilgan



3) uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash to‘g‘risidagi sudning ajrimida ko‘rsatiladigan holatlar to‘liq nazarda tutilgan;

Shaxsning jamiyatdan to‘liq yoki qisman ajratib qo‘yilganligini, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyini qo‘riqlash belgilangan hollarda ushbu vazifani amalga oshiradigan organni ko‘rsatish qo‘shilgan

4) sudning uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash, uy qamog‘i muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi ajrimi nusxasini darhol ijro qilinishi uchun yopiq elektron platforma orqali ichki ishlar organiga yuborish tartibini joriy etish belgilangan;

Ichki ishlar vazirligi tomonidan yopiq elektron platforma ishlab chiqilgan va sinovdan muvaffaqiyatli o‘tkazilgan

5) uy qamog‘ini ijro etuvchi organ aniq belgilangan (*gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi*);

6) uy qamog‘ining turi (*jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yish, jamiyatdan qisman ajratib qo‘yish*) – shaxsga cheklovlarni qo‘llashning asosi sifatida belgilangan, shuningdek, o‘rnatiladigan cheklovlarning miqdori ham qonun normasida aniq tartibga solingan;

Taklif etilayotgan 242²-modda loyihasida jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yilgan shaxsga 4 ta cheklov o‘rnatilishi, 242³-modda loyihasida esa jamiyatdan qisman ajratib qo‘yilgan shaxsga 2 ta cheklov (muayyan shaxslar bilan aloqada bo‘lish, uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot chorasini ijro etish joyini tark etish) o‘rnatilishi belgilangan.

7) jamiyatdan to‘liq ajratib qo‘yish tarzidagi uy qamog‘ining mazmuni va uni qo‘llash asoslari, bunda shaxsning ehtiyot chorasini ijro etish joyida bo‘lishini nazorat qilish (*elektron kuzatish vositasini taqish orqali uzluksiz nazorat qilinadi*), shaxsning xulq-atvorini



nazorat qilish (*ichki ishlar organi tomonidan profilaktik nazorat choralari qo'llagan holda nazorat qilinadi*), shaxsni tergov harakatida yoki sud majlisida ishtirok etishi (*videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etadi*), ehtiyot chorasini ijro etish joyini qo'riqlash (*qo'riqlash respublika byudjeti hisobidan Milliy gvardiya bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi*), shaxsga o'rnatiladigan ozodlik bo'yicha aniq cheklovlar, o'rnatilgan cheklovlar buzilganda shaxsga qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartibi belgilangan;

8) jamiyatdan qisman ajratib qo'yish tarzidagi uy qamog'ining mazmuni va uni qo'llash asoslari, bunda shaxsning ehtiyot chorasini ijro etish joyida bo'lishini nazorat qilish (*ichki ishlar organi tomonidan sutkada ikki marta istalgan vaqtda tekshirish o'tkazish orqali nazorat qilinadi*), shaxsni tergov harakatida yoki sud majlisida ishtirok etishi (*bevosita yoki videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etadi, shaxs tergov organi yoki sudga ichki ishlar organining transport vositasida va soqchi kuzatuvda olib boriladi*), o'rnatiladigan ozodlik bo'yicha aniq cheklovlar, cheklovlar buzilganda shaxsga jamiyatdan to'liq ajratib qo'yish tarzidagi uy qamog'ini qo'llash tartibi belgilangan.

Loyihani tayyorlashda AQSH, Avstraliya, Vengriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Kanada, Koreya, Ozarbayjon, Turkiya, Fransiya, Qozog'iston davlatlarining ijobiy tajribalari o'rganilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasining ijrosini nazorat qilish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni loyihasi ishlab chiqilgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, uy qamog'i institutining joriy etilishi xalqaro inson huquqlari standartlariga yaqinlashish sifatida baholanadi.



Sud nazoratisiz qo‘llanilgan uy qamog‘i Konstitutsiyaga zid deb topilishi mumkin. 2023-yilgi tahrirda bu masalaga huquqiy aniqlik kiritilib, faqat sud sanksiyasi bilan uy qamog‘i qo‘llanilishi belgilandi[3]. Bu esa shaxs erkinligini qonunsiz cheklash holatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Uy qamog‘i ehtiyot chorasi jinoyat protsessida inson huquqlarini asrash va zamonaviy demokratik talablar asosida harakat qilishning muhim huquqiy vositasidir. So‘nggi qonunchilik islohotlari bu institutni ancha puxta va huquqiy jihatdan kafolatlangan shaklga keltirdi. Kelgusida bu institutning qo‘llanishi amaliyotda yanada takomillashishi zamirida, jinoyatchilikni oldini olish, jinoyat sodir etilishining ildiz sabablarini bartaraf etish, huquqbuzarlikka moyil shaxslarni ijtimoiy moslashtirish, fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borligini ta’kidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston madaniy merosini o‘rganish, saqlash va ommalashtirish bo‘yicha Butunjahon jamiyati.//“Adolat – davlat asosi va podshohlar shioridir”: Oqsaroydagi bitiklardan yana biri haqida.// 23.01. 2024// <https://society.uz/uz/news/detail/news/1120>

2. O‘zbekiston Respublikasining 04.09.2014 yildagi «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida» gi O‘RQ-373-son Qonuni.// <https://www.lex.uz/uz/docs/7050441>.

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.T.:2023 yil. <https://constitution.uz/uz>

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 5 dekabrda gi “Uy qamog‘i ehtiyot chorasi qo‘llanilgan va ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan shaxslarni elektron braslet orqali masofadan turib nazorat qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” gi 813-son qarori.// <https://www.lex.uz/docs/7249299>.